MAMALAKATIMIZ IMPORTI VA EKSPORTIDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI	798
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
YEVROOBLIGATSIYA VA UNING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN EMISSIIYASI	807
Avezov Ibrohim Ilxomovich	



IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	808
Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi	
SPORT ANJOMLARI SANOATIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TIZIMLASHTIRISH MODELINING ZARURATI.....	813
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GREEN MARKETING STRATEGIES AND THE APPLICATION OF NEUROMARKETING METHODS IN THEIR DEVELOPMENT.....	819
Samadov Asqar Nishonovich, Latipova Go'zal	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	825
Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING EMPERIK TAHLILI	831
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONALAR ROLI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.....	840
Raxmonova Nigina Anvarovna	
IJTIMOII SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTONNING AMALIY YONDASHUVI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	844
Bafojev Farrux Jo'raqulovich	
AHOLI IJTIMOII HIMOYASINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI	852
Ulashev Xubbim Askarovich	
YASHIL TA'LIM RIVOJLANISH BOSQICHLARI: YAPONIYA MISOLIDA	856
Raxshona Nabibullayeva	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON SAVDONING MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI.....	861
Mo'minov Yahyobek Shokirjon o'g'li	
TUROPATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	865
Toshev Akmal Salimovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQADA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	874
Quldasheva Maftuna Musurmon qizi	
ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	878
Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли	
МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ.....	884
Нарзуллаева Мехрангиз Ақобировна	
DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI	899
Voxidova Mehri Xasanovna	
GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	905
Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
Jumanazar Xolmuminov	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI	916
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSİYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich	



FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
Yakubov Jakhongir	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ	929
Каримова Нуржахон Олим кизи	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI"	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI	947
Raximov Baxromjon Ibroximovich	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOB I VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	



“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”

Xursandov Komiljon Maxmatkulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, v.b. dotsent

E-mail: komiljonxursandov1987@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning O‘zbekistondagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatda yashil energetika va yashil ekologiyani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, ushbu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish mexanizmlari hamda zarur institutsional, iqtisodiy va tashkiliy choralar yoritib berilgan. Tadqiqotda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekotizim barqarorligini ta‘minlash va “yashil makon” tashabbuslarini kengaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil ekologiya, yashil energetika, yashil makon, atrof-muhit, ekotizim, tabiat.

Abstract. This article examines the role and significance of the green economy in Uzbekistan. It highlights the key directions for the development of green energy and green ecology, as well as the phased measures and mechanisms required for their effective implementation. Particular attention is paid to environmental protection, ensuring ecosystem sustainability, and expanding “green space” initiatives within the framework of sustainable national development.

Key words: green economy, green ecology, green energy, green space, environment, ecosystem, nature.

Аннотация. В статье проанализированы роль и значение зелёной экономики в Республике Узбекистан. Особое внимание уделено основным направлениям развития зелёной энергетики и зелёной экологии, а также поэтапным мерам и механизмам, необходимым для их эффективной реализации. Рассматриваются вопросы охраны окружающей среды, обеспечения устойчивости экосистем и расширения инициативы «Зелёное пространство» в контексте устойчивого развития страны.

Ключевые слова: зелёная экономика, зелёная экология, зелёная энергетика, зелёное пространство, окружающая среда, экосистема, природа.

KIRISH

Mavzuni har tomonlama yoritish maqsadida, avvalo, iqtisodiyot tushunchasiga to‘xtalib o‘tish lozim. Iqtisodiyot — bu mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularni samarali taqsimlash va to‘g‘ri yo‘naltirish jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi tizim sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayonlar jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot tushunchasi alohida e‘tiborga loyiqdir. Yashil iqtisodiyot, eng avvalo, ekologiyani muhofaza qilish, atrof-muhitni yaxshilash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan iqtisodiy rivojlanish modelidir. Bu yondashuv inson faoliyati va texnologiyalar natijasida atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta‘sirlarni kamaytirish, sanoat, transport va ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik xavfsizlikni ta‘minlashni nazarda tutadi. Xususan, qayta tiklanuvchi resurslardan samarali foydalanish, chiqindilar hajmini qisqartirish hamda ekologik muvozanatni saqlash yashil iqtisodiyotning asosiy vazifalari hisoblanadi.



O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida ham yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, ekologik muammolarning oldini olish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarining ahamiyati katta.

Shu bilan birga, mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ustuvor sohalarida dekarbonizatsiya jarayonlarini jadallashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi. O'zbekiston hududida korxonalar va texnologik jarayonlarni ekologik talablar asosida yangilash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyati mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasi xalqaro miqyosda ilk bor 1989-yil Buyuk Britaniyaning London Environmental Economics Centre ilmiy markazi tomonidan ilgari surilgan bo'lsa-da, ushbu konsepsiya 2008-yildan keyin global miqyosda keng muhokama etila boshlandi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan 2009-yilda ishlab chiqilgan "Global Green New Deal" konsepsiyasida yashil iqtisodiyot ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishning muhim integratsiyasi sifatida talqin etilgan.

Xorijiy olimlardan Nicholas Stern o'zining mashhur "Stern Review on the Economics of Climate Change" (2006-yil) asarida iqlim o'zgarishining iqtisodiy oqibatlarini chuqur tahlil qilgan holda, yashil iqtisodiyotga o'tish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Muallifning ta'kidlashicha, hozirgi bosqichda ekologik xavfsizlik masalalariga yetarli e'tibor qaratilmasligi kelajakda yanada yirik iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, Robert Costanza va uning hamkorlari tomonidan ilgari surilgan "ekosistema xizmatlari" (ecosystem services) konsepsiyasi yashil iqtisodiyotni nafaqat texnologik yangiliklar majmui, balki tabiiy resurslarning iqtisodiy qiymatini qayta baholash orqali barqaror taraqqiyotga erishish vositasi sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuv ekologik omillarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiya qilishning muhimligini ko'rsatadi.

Mariana Mazzucato o'z ilmiy tadqiqotlarida davlatning faol roli, innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda yashil texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashda hukumat siyosatining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning ishlari yashil iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning muhim omil ekanini asoslab beradi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot masalalari so'nggi yillarda dolzarb ilmiy-analitik yo'nalishga aylangan. Xususan, A. Teshaboyev, Sh. Qurbonov, D. Xolboev, N. Xayitov, S. Xashimova kabi olimlarning ilmiy ishlarida respublika sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tishning zaruriyati, mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslar, yuzaga kelayotgan muammolar hamda rivojlanish imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi yashil iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini har tomonlama o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, unda tizimli va kompleks yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy, ekologik va institutsional omillarning o'zaro bog'liqligi hisobga olinib, nazariy va amaliy jihatlar o'rtasidagi uzviy aloqani aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu maqolada tadqiqot maqsadiga erishish uchun qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, shuningdek induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanilgan. Mazkur metodlar yashil iqtisodiyotning nazariy asoslarini ochib berish, uning rivojlanish jarayonlarini tizimli tahlil qilish hamda ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarini tahlil qilish jarayonida ekologiya omiliga alohida e'tibor qaratish zarur. Xususan, 2020-yilda yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi davrida ekologik muhitning inson salomatligi va turmush sifati uchun naqadar muhim ekanini yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu tajriba barqaror rivojlanish yo'lida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor ahamiyatini ko'rsatdi.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqasi sifatida mashinasozlik, energetika, kimyo, oziq-ovqat sanoati hamda transport majmuini jadal rivojlantirishni maqsad qilgan. Mazkur tarmoqlarning rivojlanishi iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy-ekotizimlarga yuklamani oshirishi mumkin. Shu bois, ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik talablarga moslashtirish, zamonaviy "yashil" texnologiyalarni joriy etish muhim vazifa hisoblanadi.

Respublikada ekologik barqarorlikni mustahkamlash nuqtayi nazaridan hal etilishi zarur bo'lgan asosiy masalalar quyidagilardan iborat:



Hududiy-sanoat majmualari joylashgan mintaqalarda ekologik holatni yaxshilash. Jumladan, Angren–Olmaliq, Chirchiq, Farg'ona–Marg'ilon, Navoiy va boshqa sanoatlashgan hududlarda atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish talab etiladi. Ushbu mintaqalarda sanoat chiqindilari va gazlarining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun ekologik nazoratni kuchaytirish va tozalash texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Agrosanoat majmuasida ekologik barqarorlikni ta'minlash. Qishloq xo'jaligida resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsiz agrotexnologiyalarni qo'llash orqali tuproq va ekotizimlar muvozanatini saqlash imkoniyati mavjud.

Suv resurslarini muhofaza qilish. Tabiiy suv havzalarining sanoat chiqindilari, pestitsidlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishining oldini olish maqsadida kompleks monitoring va tozalash tizimlarini rivojlantirish zarur.

Biologik xilma-xillikni saqlash va tiklash. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, qo'riqxonalar hamda milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish orqali tabiiy ekotizimlarning barqarorligini mustahkamlash mumkin.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi yo'nalishlarda tizimli choralar ko'rilishi yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish, ekologik xavflarni kamaytirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ekologik vaziyatni yaxshilash yo'llari

O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo'yicha asosiy strategik maqsadlar aholi salomatligi uchun qulay sharoit yaratish hamda biosferaviy muvozanatni saqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning samaradorligi va barqarorligini ta'minlash maqsadida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanadigan resurslar ishlab chiqarilishi va iste'moli o'rtasidagi muvozanatni saqlash, tiklanmaydigan resurslardan tejankor foydalanish hamda chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish muhim vazifalar hisoblanadi. Regional va mahalliy darajalarda tabiiy tizimlarning qayta tiklanish xususiyatlarini qo'llab-quvvatlash, biologik xilma-xillik va genofondni saqlash ham ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Orol dengizi bilan bog'liq ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yumshatish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu hududda aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash, sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rilmogda. Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda yagona suv xo'jaligi siyosatini ishlab chiqish va suv resurslaridan oqilona foydalanish Orolbo'yi hududida ekologik barqarorlikni tiklashga xizmat qiladi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish yo'nalishida shaharlar va aholi punktlarida havo sifatini yaxshilash ustuvor vazifa hisoblanadi. Buning uchun chiqindilar hajmini kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni joriy etish, chang to'plovchi va tozalovchi zamonaviy qurilmalarni yaratish hamda eskirgan uskunalarni yangilari bilan almashtirish muhimdir. Mazkur chora-tadbirlar sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya etilishini ta'minlash bilan birga, aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Orol dengizining qurishi mintaqada iqlim o'zgarishlari jarayonlarini kuchaytirgan. Qurg'oqchilik sharoitida iqlimning keskin kontinental xususiyatlari ortib, haroratlar tafovuti, shamol tezligi va chang-to'zon hodisalari kuchaymogda. Shu bois, Orolbo'yi hududida sanitariya-epidemiologik holatni yaxshilash, ekologik moslashuv choralarni kengaytirish dolzarb vazifalardan biridir.

Energetika sohasida ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasi ham muhim ahamiyatga ega. An'anaviy yoqilg'i turlaridan keng foydalanish ekologik yuklamani oshirishi mumkin. Shu sababli elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya manbalarini — gidroenergetika, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, yoqilg'i resurslarini tejash hamda energiya ta'minoti barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish aholini energiya bilan uzluksiz ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi, iqlim sharoitlarining keskinlashuvi davrida ham energiya xavfsizligini mustahkamlaydi. Natijada, aholi farovonligi oshib, ekologik barqaror rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratish zarur. Tabiiy resurslardan, jumladan qayta tiklanuvchi resurslardan oqilona foydalanish atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta'sirni kamaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologiyani muhofaza qilish bo'yicha tizimli va uzluksiz chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, yashil energetika va yashil texnologiyalarni rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, energiya xavfsizligini mustahkamlash hamda ekologik yuklamani kamaytirishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda davlat, xususiy sektor va jamiyatning barcha qatlamlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va jamoaviy mas'uliyatni oshirish maqsadga muvofiqdir.



Umuman olganda, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni barqaror rivojlanish, aholi farovonligini oshirish va kelajak avlodlar uchun sog'lom ekologik muhitni saqlab qolishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vaxabov A. V., Xajibakiev Sh. X. Yashil iqtisodiyot: darslik. – Toshkent: Universitet, 2020-yil. – 262 bet.
2. Yashil ekologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, nashr yili ko'rsatilmagan.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF–16-son Farmoni. – Toshkent, 2025-yil 30-yanvar <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>.
4. Xashimova S. N. Yashil iqtisodiyot: darslik. – Toshkent: Ma'rifat, 2024-yil. – 224 bet.
5. Tirkashev F. Intellektual mulkni boshqarish jarayonlarini o'rganishning nazariy muammolari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023-yil. – № 1(11–12).
6. Tirkashev F., Musurmonov N. Global iqtisodiy rivojlanish sharoitida yashil iqtisodiyot muammolari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024-yil. – № 2(1).
7. Tirkashev F., Toshpulatova K. "Yashil" iqtisodiyot: konsepsiyaning shakllanishi va asosiy kategoriyalari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024-yil. – № 2(1).
8. Tirkashev F., Zarmaxmatov N. Raqamli iqtisodiyotning zamonaviy sharoitdagi o'rni // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024-yil. – № 2(1).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
